

ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA HAQIQATNI ANIQLASH JARAYONIDA DALILLARNING AHAMIYATI VA UNI TO'PLASH, TEKSHIRISH VA BAXOLASHNI AMALGA OSHIRUVCHI MANSABDOR SHAXSLARNING DOIRASI XUSUSIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17988954>

Sayfullaev Nodirbek Ulug'bek ug'li

mustaqil izlanuvchi

sayfullayevnodirbek2025@gmail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada jinoyat protsessual qonunchiligida dalillar institutining o'рни va ahamiyati, isbot qilish hamda haqiqatni aniqlash tushunchalarining o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv organlari va prokurorning dalillar bilan ishlashdagi rolini takomillashtirish, JPKning 81 va 85-moddalariga tegishli qo'shimchalar kiritish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

jinoyat protsessual qonunchiligi, dalil, isbot qilish, haqiqatni aniqlash, tergovga qadar tekshiruv, prokuror nazorati, tezkor-qidiruv faoliyati.

Абстрактный

В данной статье теоретически и практически анализируется роль и значение института доказательств в уголовно-протсессуальном законодательстве, взаимосвяз понятий доказывания и установления истины. Также обосновывается необходимость совершенствования роли органов доследственной проверки и прокурора в работе с доказательствами, внесения соответствующих дополнений в статьи 81 и 85 УПК.

Ключевые слова

уголовно-протсессуальное законодательство, доказательства, доказывание, установление истины, доследственная проверка, прокурорский надзор, оперативно-розыскная деятельность.

Abstrakt

This article theoretically and practically analyzes the role and importance of the institution of evidence in criminal procedure legislation, the interrelationship between the concepts of proof and establishing the truth. The need to improve the

role of pre-investigation verification bodies and the prosecutor in working with evidence, and to make appropriate amendments to Articles 81 and 85 of the Criminal Procedure Code is also substantiated.

Key words

criminal procedure legislation, evidence, proof, establishing the truth, pre-investigation verification, prosecutorial supervision, operational-search activities.

Jinoyat protsessual qonunchiligining asosiy vazifasi – jinoyatlarni tez va to‘liq ochish, jinoyat sodir etgan shaxslarga adolatli jazo tayinlash, aybi bo‘lmagan shaxslarni javobgarlikka tortmaslik va sudlanmaslikni ta‘minlashdan iboratdir. Bu vazifalarni bajarish jarayonida haqiqatni aniqlash, ya‘ni ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘liq, xolis va har tomonlama tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillar tizimi aynan shu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki jinoyat protsessual qonunchiligidagi har bir qaror, xulosa yoki hukm aniqlangan faktik ma‘lumotlarga, ya‘ni dalillarga tayanadi.

Haqiqatni aniqlash jarayonida dalillar juda muhimdir, chunki ular ishning haqiqiy holatini tasdiqlash, ayblash yoki inkor etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashni odatda tergovchi, prokuror va sud kabi mansabdor shaxslar amalga oshiradi. Bu jarayon qonuniy va xolis bo‘lib, har bir dalil uni o‘rganish va baholash uchun asosli sabab bo‘lishi kerak.

Dalillarni aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi - sud tomonidan isbotlashning tegishli xususiyatlari bilan tasdiqlangan ish uchun ahamiyatli dalillar va xolatlar qabul qilinadi degani. Dalillarni aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi qoidalarining buzilishi dalillarning to‘liq bo‘lmasligiga yoki ishga dahli bo‘lmagan dalillar to‘planishiga olib keladi. Qonunda bu umumiy ko‘rinishda ifoda etilgan. Muayyan dalillar bilan aniqlanadigan konkret holatlar fuqarolik huquqining moddiy normalari bilan ko‘zda tutilgan.

Dalillarning aloqadorligi - bu dalilning o‘z mazmuni bilan ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash vositasi sifatida xizmat qila olishidir, boshqacha aytganda, aloqadorlik - dalillarning mazmunan yaroqliligidir. Dalillarning maqbulligi esa dalillarning shakl jihatidan yaroqliligidir. Dalillarning ishonchliligi deganda, tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan, haqqoniyliги shubha tug‘dirmaydigan dalillar tushuniladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha xolatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib, o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi. Dalillar belgilangan tartibda to'plangan va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lsagina, ular maqbul deb e'tirof etiladi, ya'ni tergov harakatlari ishtirokchilarining, shuningdek sud muhokamasidagi taraflarni qayd etish to'g'riligini tasdiqlash bo'yicha harakatlar jarayoni va natijalari aks ettirilgan bayonnoma bilan tanishish, xuddi shuningdek bayonnomaga qo'shimcha va tuzatishlar kiritish huquqlari ta'minlanishi kerak.

Dalillarga baho berish - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha xolatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud xolatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubxa ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador, deb e'tirof etiladi.

Jinoyat protsessual kodeksining 25 - bobiga muvofiq, dalillar uch turga bo'linadi:

- ashyoviy;
- yozma;
- raqamli dalillar.

Ashyoviy dalillar – moddiy jismlar yoki ularda saqlangan belgilar orqali ish holatlarini aniqlash imkonini beradigan narsalardir. Ashyoviy dalillardagi axborot obektiv xususiyatiga ega bo'ladi, tabiiy holda ifodalanadi va ko'rgazmali holda qabul qilinadi. Kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma'lum maqsadlarda foydalanganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo'ldan-qo'lga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek, ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo'lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi.

Yozma dalillar – ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar, shartnomalar, ma'lumotnomalar, amaliy yozishmalar, shu jumladan faksimil, elektron yoki boshqa aloqa vositasida yoxud hujjatning ishonchliligini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usulda olingan o'zga hujjatlar va materiallar yozma dalillardir.

Yozma dalillar asl nusxada yoki tegishli tarzda tasdiqlangan ko'chirma nusxada taqdim etiladi. Agar ko'rilayotgan ishga hujjatning faqat bir qismi aloqador bo'lsa, uning tasdiqlangan ko'chirmasi taqdim etilishi mumkin.

Ish holatlari qonunchilikka muvofiq hujjatlarning faqat asl nusxalari bilan tasdiqlanishi lozim bo'lsa, shuningdek boshqa zarur hollarda sudning talabi bilan ularning asl nusxalari taqdim etiladi.

Sudga taqdim etiladigan, to'liq yoki qisman chet tilida tuzilgan yozma dalillarga ularning tegishli tarzda tasdiqlangan tarjimalari ilova qilinadi.

Chet davlatda olingan hujjat, agar u qonunchilikda belgilangan tartibda legallashtirilgan bo'lsa, sudda yozma dalil deb tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan hollarda chet davlatda olingan hujjat legallashtirilmasdan sudda yozma dalil deb tan olinadi.

Raqamli (elektron) dalillar - ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan elektron tarzdagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga, basharti uning yaxlitligi va aynan o'xshashligi saqlansa, yo'l qo'yiladi.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga yo'l qo'yilishi o'zidan mazkur ko'chirma nusxa olingan raqamli dalilning asli mavjudligi bilan ta'minlanadi, bundan notarius tomonidan tasdiqlangan raqamli dalillar mustasno. Ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko'chirma nusxalarini qog'ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga ega. Bunda raqamli dalilning qog'ozdagi shakli yozma dalil deb hisoblanishi mumkin emas, bundan notarius tomonidan tasdiqlangan raqamli dalil mustasno.

Sud jarayonida tuzilgan protsessual bayonnomalarga ilova qilingan, elektron ma'lumotlar tarzida shakllantirilgan audio- va videoyozuvlar xam raqamli dalillar hisoblanadi.

Biroq, faqat shu uch turdagina dalil deb tan olish noto'g'ri yondashuv hisoblanadi. JPKning 81-moddasida qayd etilganidek, ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan har qanday faktik ma'lumotlar qonunda belgilangan tartibda olingan, tekshirilgan va baholangan bo'lsa dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Amalda JPKning 81-moddasida dalillar bilan ishlovchi sub'ektlar sifatida surishtiruvchi, tergovchi va sud ko'rsatilgan. Biroq 2017-yil 6-sentabrdagi 442-son qonun bilan JPK 391-modda bilan to'ldirilib, tergovga qadar tekshiruv organlari instituti joriy etildi.

Bu organlar haqiqatni aniqlash maqsadida jinoyat alomatlarini aniqlash, ekspertizalar tayinlash va ilmiy-texnika vositalaridan foydalanish orqali dalillarni to'plash va baholash vakolatiga egadirlar.

Shu bois, JPKning 81-moddasida tergovga qadar tekshiruv organlari ham dalillar bilan ishlovchi sub'ekt sifatida qayd etilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, prokurorning ham bu jarayondagi o'rni muhim o'rin tutadi. JPKning 382-moddasiga ko'ra, prokuror surishtiruv va tergovda ishtirok etib, zarur hollarda ish yurituvni shaxsan amalga oshirishi yoki ayrim tergov harakatlarini o'zi bajarishi mumkin. Demak, prokuror ham dalillarni to'plash va baholashda faol subyekt hisoblanadi.

Shu asosda JPKning 81-moddasini quyidagicha to'ldirish taklif etiladi: "Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi".

JPKning 85-moddasida isbot qilish "dalillarni to'plash, tekshirish va baholash orqali ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash" sifatida ta'riflangan. Biroq bu ta'rifda isbot qilishning maqsadi va mohiyati to'liq ochib berilmagan.

Tadqiqotchi G.V. Nefadovskiyning fikricha, haqiqatni aniqlash – jinoyat qonunchiligidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib, u faqat qonunda belgilangan emas, balki qonuniy yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan barcha usullarni o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan, isbot qilish – haqiqatni aniqlashning qonunda belgilangan protsessual shaklidir. Ya'ni haqiqatni aniqlash – keng tushuncha, isbot qilish esa uning tartibiy, huquqiy mexanizmi hisoblanadi.

Shu asosda JPKning 85-moddasini quyidagi mazmunda to'ldirish maqsadga muvofiq: "Isbot qilish – ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash usullari orqali amalga oshiriladigan kompleks jarayondir".

Tezkor-qidiruv faoliyati haqiqatni aniqlashda muhim manba hisoblanadi. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, ushbu faoliyat maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan maxfiy usullarda amalga oshiriladi.

Agar tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan ma'lumotlar qonun talablariga muvofiq to'plangan, tekshirilgan va baholangan bo'lsa, ular ham dalil sifatida tan olinishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu jarayonda maxfiylik va qonuniylik talablariga qat'iy rioya etish shart.

JPKning 22-moddasida haqiqatni aniqlash jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilangan. Bu prinsip surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va suddan ish bo'yicha barcha holatlarni har tomonlama va xolisona tekshirishni talab etadi.

Haqiqatni aniqlash prinsipi jinoyat ishi bo'yicha adolatli va qonuniy qaror qabul qilishning huquqiy kafolatidir. U ishni yuritishda ishtirok etuvchi har bir subyektning Konstitutsiya va qonun talablariga qat'iy rioya etishini taqozo etadi.

Yana shuni alohida qayd etish kerakki, Tergovga qadar tekshiruv instituti jinoyat protsessida adolatni ta'minlashning dastlabki va eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichda holatlarni to'g'ri baholash, voqea-hodisaning haqiqiy manzarasini tiklash va kelgusi protsessual qarorlar uchun mustahkam huquqiy asos yaratish maqsad qilib qo'yiladi. Shu bois, tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga haqiqiy holatni aniqlash, ya'ni "ishning haqiqiy mazmun-moxiyatini ochish" vazifasi yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv o'tkazuvchi organlar: ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, bojxona xizmatlari va boshqa vakolatli tuzilmalar hisoblanadi. Ularning faoliyatida asosiy tamoyillardan biri holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona o'rganishdir.

Qonunlar organlardan ayblov va himoya tomonini inobatga olgan holda, voqeaga ta'sir qiluvchi barcha ma'lumotlarni yig'ishni, tahlil qilishni va huquqiy baho berishni talab qiladi.

Bunda haqiqatni aniqlash jarayonining asosiy yo'nalishlari

1. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish: Jinoyat alomatlari to'g'risida xabar kelib tushgan paytdanoq organlar voqea yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni yig'ishga kirishadi. Bu bosqichda: xabar beruvchi shaxsdan izoh olish, voqea joyini ko'zdan kechirish, mavjud dalillarni qayd qilish, foto va videotasvirlarni yig'ish kabi ishlar amalga oshiriladi. Turli vaziyatda xolis yondashuvni saqlash tekshiruv jarayonida organlar har qanday shoshma-shosharlikdan voz kechib, faqat obektiv dalillar asosida qaror qabul qilishi zarur. Aybni tasdiqlovchi va rad etuvchi holatlar teng o'rganilishi haqiqatga erishishning muhim shartidir.

3. Dalillar manbalarining xilma-xilligidan foydalanish: Tergovga qadar tekshiruv chog'ida: guvohlar ko'rsatmalari, moddiy dalillar, audio-video yozuvlar, xizmat yozuvlari, ekspert xulosalari kabi turli manbaning mavjudligi haqiqatni tiklash imkoniyatini kengaytiradi.

4. Ekspert va mutaxassislarni jalb qilish: Qonunchilik murakkab holatlarda sud-ekspertlari, kriminal texniklar, tibbiy mutaxassislar yoki boshqa sohalarning

ekspertlarini jalb etish orqali haqiqatni yanada aniqlik bilan belgilash imkonini beradi.

5. Qonunda belgilangan protsessual kafolatlarga rioya qilish: Haqiqatni aniqlash faqat qonun doirasida amalga oshirilganda adolatli qaror qabul qilinishi mumkin. Shunday kafolatlar quyidagilar: fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, nohaq bosim, ta'qiqlangan usullardan foydalanmaslik, har bir protsessual harakatni rasmiy qayd etish, dalillarning qonuniyligi va ishonchliligini ta'minlash, haqiqatni aniqlashning amaliy ahamiyati

Tergovga qadar tekshiruvda holatlar to'g'ri o'rganilishi: noto'g'ri ayb qo'yish xavfini kamaytiradi, aybi yo'q shaxslarning huquqlarini himoya qiladi, jinoyatchilarni aniq chiqarish imkonini oshiradi, keyingi tergov harakatlarining samaradorligini ta'minlaydi.

Bu jarayon ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirib, jinoyat protsessida tezkor va aniq qaror qabul qilishga zamin yaratadi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning asosiy vazifasi jinoyat yuzasidan haqiqiy holatni xolisona aniqlashdir. Bu vazifa qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashda aniq va adolatli mexanizmlarni qaror toptirish uchun muhim ahamiyatga ega. Voqealarning haqiqiy manzarasini aniq belgilash orqali tergov jarayonining keyingi bosqichlari uchun to'g'ri, ishonchli va qonuniy asoslar yaratiladi.

JPKning 391-moddasiga ko'ra, bugungi kunda 15 dan ortiq davlat organlarining vakolatli tuzilmalari va mansabdor shaxslari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlari sifatida belgilangan. Aynan ushbu tashkilotlarning mansabdor shaxslari JPKning 329-moddasida nazarda tutilgan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini hamda dastlabki tergov harakatlari amalga oshirish vakolatiga ega.

Yuqoridagi tergovga qadar tekshiruv organlarining tegishli ixtisoslligidan kelib chiqib, vazifalari tahlil qilinganda quyidagi o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin.

Ichki ishlar organlari JKdagi asosiy jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekushiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida e'tirof etilganligi bois, jinoyat protsessual kodeksida birinchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida ko'rsatilgan.

Harbiy qismlar va komandirlar harbiy xizmat bilan bog'liq jinoyatlar o'zining tartib, intizom va xizmat sharoitiga xos jihatlarga egaligi sababli ushbu ixtisoslashuv harbiy jinoyatlar yuzasidan haqiqatning professional darajada tekshirilishini ta'minlaydi.

Davlat xavfsizlik xizmati organlari mamlakat xavfsizligiga oid jinoyatlarni anglash, baholash va tekshirish yuqori maxfiylik va maxsus bilim talab etadi. DXXning maxsus salohiyati haqiqatni aniqlashda yuqori darajada xizmat qiladi.

Jazoni ijro etish tizimi boshliqlari jazoni ijro etish muassasasida maxsus sharoitlarda sodir etiladigan huquqbuzarliklarni boshqa organlar nisbatan to'liq va tez aniqlay oladi. Shu sabab ularning o'ziga yuklatilgan tekshiruv funksiyasi jarayon samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi boshqa organlar ham o'zlarining vakolatlari va xizmat xususiyatlaridan kelib chiqib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirdilar.

Shu o'rinda bir jihatga alohida e'tibor berish kerakki, haqiqatni aniqlashni amalga oshiruvchi har bir organ quyidagi majburiyatlarga qat'iy rioya etishi shart:

Holislik – aybdor shaxsni topish emas, balki haqiqatni aniqlashdan iborat bo'lgan jarayon.

Qonuniylik – har bir harakat JPK talablariga mos bo'lishi kerakligi haqidagi majburiyat.

Barcha dalillarni teng o'rganish va xolis baholash – ayblovni ham, oqlovni ham birdek tekshirish.

Qiynoq va ta'qiqlangan usullardan har qanday usuldan foydalanmaslik – bu haqiqatni buzishga olib keladi.

Shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilish – haqiqatga etishishda bunday kafolatlar zarur.

Har bir faktning isbotlanganligi – dalil manbalari aniq, ishonchli va tekshirilgan bo'lishi shart.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, isbot qilish – ishni qonuniy, asosli va adolatli hal etish uchun haqiqatni aniqlashga qaratilgan uzviy jarayon bo'lib, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash usullari orqali amalga oshiriladi.

Haqiqatni aniqlash esa jinoyat protsessining bosh maqsadi bo'lib, uni ta'minlashda sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi hamda ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar faqat qonun doirasida harakat qilishlari lozim.

Dalillar bilan ishlashda yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, tergovga qadar tekshiruv organlari va prokurorlarning rolini mustahkamlash, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini dalil sifatida qonuniy asosda tan olish jinoyat protsessual qonunchiligining zamonaviy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" – 2023-yil;

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. "Adolat" - 2024-yil;
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Prokuratura to'g'risida". 2001- yil 29-avgustdagi 257-II-son yangi tahrirda;
4. O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" 2012-yil 25-dekabrda O'RQ-344-son;
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2017-yil 6-sentabrda O'RQ-442-son;
6. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.
7. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.
8. G.V. Nefadovskiy. Jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash muammosi - falsafa muammosi sifatida. Moskva – 2007-y.